

**O`ZBEK VA RUS MAQOLLARI ASOSIDA OILA TUSHUNCHASINING YORITILISHI****Ikromaliyeva Saodatoy Shuhratbek qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti O`zga tilli guruhlarda rus tili yo`nalishi 1-bosqich  
magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6583404>

**ANNOTATSIYA:** Maqlada o`zbek va rus xalq maqollarida oila tushunchasining yoritilishi haqida so`z yuritiladi. Tarjimaning bir qancha muhim innovatsion usullarini topish va rus va o`zbek tillaridagi o`ziga xos xususiyatlarni qarama-qarshi qo`yish uchun boshqa tilda tarjima qilish uchun maqsadli tilda ba`zi maqollarning ekvivalentlari berilgan.

**Kalit so`zlar:** maql, oila,sinonim,antonim, madaniyat,mentalitet,bola.

Bizga ma'lumki, maqollarning millat milliy xususiyatlari va madaniyatini aks ettirishdagi o'rni katta. Maqollarda nafaqat xalqning urf-odatlari va milliy tushunchalari, balki tarixiy joylar, taniqli insonlar va xalqning taniqli personajlari ham o'z ifodasini topgan. Taniqli tilshunos V.Mayder o`z kitobida maqolga quyidagicha ta'rif beradi: "Maql - bu xalqning hikmat, haqiqat, axloq va ananaviy qarashlarini metafora, sobit va esda qolarli shaklda o'z ichiga olgan qisqa, umuman ma'lum jumla. avloddan avlodga o`tib kelmoqda" [1]. **Maql** — xalq og`zaki ijodi janri; u qisqa va lo`nda, obrazli va obratzsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora, chuqr mazmunli bo`ladi. Muayyan aniq shaklga ega. maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan,oila, mehnat, ilm-hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy xislatlar xususida rang-barang maqollar yaratilgan [4].

Maqollarning paydo bo'lishi va shakllanishi, ularni xalq tomonidan jonli suhbatga kiritish ba'zan ancha uzoq vaqt talab etadi. O`zbek va rus tillari ikki til oilasiga mansub shuningdek,ular rivojlanish tarixi va o`zga tillarning ta'siri nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun ham maqollardagi mazmun bir-biriga yaqin bo`lsa-da ko`p o`rinlarda shakl va semantikasida bir-



biridan farq qiladi. Maqollarni tarjima qilishda tilshunosdan yuksak mahorat, madaniy, sotsiologik bilimlar talab qilinadi, zero tarjimada millatlarning mentaliteti, yashash tarzi va dunyoqarashidan kelib chiqib maqolning asl mazmuniga mos keluvchi ekvivalentini topish lozim. Maqollarni so'zma-so'z tarjima qilish, boshqa tillarda maqollarning ma'nosini ifodalash uchun yetarli emas, chunki uning mazmuni tarjima qilingan tilda mavjud. Bu maqolning asosiy ma'nosini noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin.

Ushbu maqolada oila haqidagi maqollardan misollar keltirish yordamida o'zbek va rus tilidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilinadi. "Oila", tushunchasi "sog'liq", "boylik" va "mehnat" kabi ijtimoiy tushunchalar qatorida sodir bo'ladigan inson hayotida qimmatli mavhum tushunchadir. Quyida ayrim o'zbek maqollari va ularning rus tilidagi muqobillarini ko`rib tahlil qilamiz:

*1) Xotin-erning vaziri*. Муж — голова, жена — шея. Har ikki tilda oilada er-xotinning o'rni, mavqeyi haqida bir-biriga o'xshash ma'nodagi maqollar keltirilgan. O'zbek tilida xotinning vazirga qiyoslanishi orqali ernen podshoh ya'ni oila boshlig'i ekanligiga, o'z o'rnida ayol dono bo`lsa vazir kabi erini to'g'ri yo'lga yetaklashiga shama qilingan. Xuddi shu ma'no rus tilidagi maqolda er va xotinni bosh va bo'yinga qiyoslash orqali ko`rsatilgan. Ya'ni bo`yin qayerga burilsa bosh ham shu tarafga qaraydi. Maqollar o'rtasida sinonimlik bo`lsa-da nozik bo'yoqlar bilan farqlanadi.

*2) Bolali uy bozor— bolasiz uy mozor*. Семья без детей — что цветок без запаха [5]. Ikki tildagi bu maqollar lingvokulturologik tahlilni taqazo etadi. Demak, har qaysi millat uchun oilaning asosi, ko`rki farzand bilan ekanligi ayon bo'ladi. O'zbek tilida ham rus tilida ham o'xshatish san'atidan foydalanilgan. Ona tilimizda bolasiz uy mozorga qiyoslansa, rus tilida iforsiz gulga qiyoslanmoqda. Demakki oila farzandlar bilan go'zal ekanligiga ishora qilingan.

*3) Oila farog'ati, er-xotin sadoqati*. В дружной семье и в холод тепло [3]. Bu maqol orqali oilada er-xotin o'rtasidagi munosabatlarning iliqligi, sadoqat, inoqlik borligi butun oilaning tinchligi garovi ekanligi ko`rsatilgan. Har ikki maqol shuni anglatadiki, er-xotin totuv bo`lsa oilada osoyishtalik hukmron bo'ladi.

*4) Qarisi bor uyning parisi bor*. У кого есть бабушка и дед, тот не ведает бед [4]. Jahonda qadimdan doimo keksalar donishmandlik timsoli sifatida alohida qadrlanib kelinadi. Oilaviy



munosabatlarda ham ularga maslahatgo'y shaxslar sifatida qaraladi. Musulmonlar nuqtai nazaridan qaysi xonadonda keksalar bo'lsa u xonodon fayzli deb hisoblanadi. Ruslarda ham bu yuqoridagi maqol misolida ko'rsatilgan. Qaysiki xonadonda bobo-buvilar bo'lsa uyerda gina kudurat,xafachilik bo'lmaydi deyilgan,ya'ni keksalar vaziyatni doim nazorat ostiga olib yoshlarni to`g`ri yo`lga solib turadilar.

Oila haqida o'zbek tilida ko'plab maqollar mavjudki, ularning ekvivalentlarini boshqa tillarda uchratib bo'lmaydi, buning asosiy sababi shundaki,oila haqidagi ko'plab o'zbek maqollari o'zbek madaniyatini ifoda etadi: O`nta bo'lsa o'rni boshqa qirqta bo'lsa- qilig'i; Oila-qo'sh ustunli ayvonva hokazo.

Xulosa qilib aytganda , rus va o'zbek tillaridagi maqollar bir-biridan semantik, strukturaviy, stilistik va hatto pragmatik jihatdan farq qiladi. Maqollar millat madaniyatining ko'plab kamchiliklarini qamrab oladi. Maqollar mavjud bo`lgan til madaniyatini tavsiflash, aniqlash va ifodalashga xizmat qiladi. Tilning paremiologik fondida milliy tushunchalar, narsalar, hissiyotlar, urf-odatlar, taniqli ajdodlar, hatto joy nomlari - madaniy nuqtalarni ko'rish mumkin. "Oila" tushunchasi bilan bog`langan rus va o'zbek maqollari millatning mentaliteti, madaniyati va urf-odatlarini aks ettiradi va ushbu millat tilida muhim o`rin tutadi. Ikkala tilda oila haqidagi maqollar xilma-xil bo`lib, ular orasida sinonimik yoki antonimik maqollarni topish mumkin. Ammo ularning sinonimik va antonimik munosabatlari mutlaq deb hisoblanmaydi, chunki ular kontekstga qarab tanlanadi, natijada ularning ma'nolari ham ozgina o`zgarishi mumkin. Shu sababli, maqolni tegishli joyda qo'llash nutqni yanada jozibador qiladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Abrahams R.D. Proverbs and proverbial expressions. In R. M. Dorson (Ed.), Folklore and folklife. Chicago, 1972. P. 117-127.
2. Norrick N.R. How proverbs mean. Berlin: Mouton, 1985.
3. <https://maqollar.uz>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki>
5. <https://nukadeti.ru/poslovicy/o-seme>
6. <https://uzbaza.uz>



7. To'xtasinova, N. R. Q., & Soibjonova, M. T. O. Q. (2022). TAGMA'NO VA PRESUPPOZITSIYA HODISASINING PRAGMATIK TADQIQI (Abdulla Qahhor asarlari misolida). Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(4), 141-146.
8. Тухтасинова, Н. Р. (2021). ИССЛЕДОВАНИЕ ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫХ И ТАГМАНСКИХ СОБЫТИЙ НА РАБОТАХ АБДУЛЛЫ КАХХАР. Экономика и социум, (2-2), 240-244.
9. Pratova, G. O., & To'Xtasinova, N. R. Q. (2022). O'ZBEK TILIDA FREZELOGIZMLARNING PRAGMATIK SINONIMYASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 35-38.